



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 2 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 2**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 2**



ТОШКЕНТ-2021

Адабиётшунослик


| | |
|--|----|
| 1. Ачилова Рисолат Аъзамовна ШЕКСПИР АСАРЛАРИДАГИ АНТОНОМАЗИЯЛАРНИНГ СЕМАНТИК ТАДҚИҚИ..... | 6 |
| 2. Севара Бабаева БАДИИЙ ТАФАККУРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК НАСРИДА АКС ЭТИШИ..... | 11 |
| 3. Шамуратова Гулистон Юлдиевна АРТИСТИЗМ УЧИТЕЛЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ТВОРЧЕСТВЕ..... | 18 |
| Тилшунослик | |
| 4. Zukhra Ikanova ISSUES ON THE PRACTICAL APPLICATION AND EFFECTIVE USE OF JURIDICAL TERMS..... | 24 |
| 5. Saidrasulova Shaxnoza Nazarovna KATTA YOSHDAGI O'RGANUVCHILAR UCHUN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISH UCHUN SAMARALI QADAMLAR..... | 30 |
| 6. Iroda Sharipova FACTORS EFFECTING FRIENDLY ATMOSPHERE IN APPLICATION EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN ESP ENGLISH LANGUAGE CLASSES..... | 35 |
| 7. Hashem Esmael Ali O'ZBEKISTONDA ARAB TILINI O'QITISH (ARAB TILI O'QUV QO'LLANMASINI ISHLAB CHIQUISH VA UNI O'QITISH METODIKASI)..... | 42 |
| 8. Кучибоев Мансур Абдумуротович, Рўзикулов Элёр Шукурович ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ УСУЛЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ ҲАҚИДА... | 48 |
| 9. Musulmonova Kamola Xusniddin qizi LINGVISTIK EKSPERTIZANING TARKIBIY QISMLARI TAVSIFI..... | 55 |
| 10. Turakulova Baxtiniso Nuriddinovna STYLISTIC PROBLEMS OF TRANSLATING WORDS FROM ENGLISH INTO UZBEK..... | 59 |
| 11. Джалалова Сайёра Мирхайдаровна ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР БОШҚАРУВ КАРЬЕРАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ..... | 63 |
| 12. Исоқова Феруза Шамсиддин қизи ҚУРЪОНИ КАРИМ МАЪНОЛАРИ ТАРЖИМАЛАРИДА МАДАНИЯТ ВА ТАРЖИМА МАСАЛАЛАРИ..... | 67 |
| 13. Очилова Нилуфар Номозовна ИЛМИЙ МАТННИНГ КАТЕГОРИАЛ БЕЛГИЛАРИ..... | 73 |
| 14. Фарход Хабибуллаевич Абдуллаев ТЕРГОВЧИ НУТҚИДА ПАРАКИНЕТИК ВОСИТАЛАРНИНГ ИФОДАСИ..... | 79 |

| | |
|--|-----|
| 15. Шерзод Халиқулович Джаббаров “ВАҚТ” ТУШУНЧАСИ КОНЦЕПТУАЛЛАШУВНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ..... | 85 |
| 16. Норимова Гулжаҳон Абдуганиевна ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТРЕНДИ-СТРИМИНГ ТЕХНОЛОГИЯСИНИНГ ИЛМИЙ МЕТОДИК ТАВСИФИ..... | 90 |
| 17. Тойчиева Насибохон Сураибаевна, Туйчиева Дилафруз Рахматовна ЛИНГВИСТИКА - НАУКА, КОТОРАЯ ИЗУЧАЕТ ДРЕВНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ЯЗЫКИ..... | 97 |
| 18. Умида Душалева Юсуфовна ИСПАН ТИЛИДА КОМПАРАТИВЛАРНИНГ “АДЪЕКТИВ” ТИПДАГИ ЖУМЛАЛАР СУБЪЕКТЛАРИГА НИСБАТАН ТАНЛАШ ХУСУСИЯТИ..... | 102 |
| 19. Илхом Турсунович Рустамов, Дилрабо Абдурашидовна Ёрматова, Хуршид Жамолхонович Сайфуллаев МАТНДА ЖОЙ НОМЛАРИНИНГ ФАОЛЛАШИШИ..... | 109 |
| 20. Amonova Zilola Qodirovna BOBORANIM MASHRABNING NASIMIYGA TATABBU'SI..... | 114 |
| 21. Рузибоев Толибжон Холматжонович ДАВЛАТИ БОҚИЙ ТИЛАРСЕН..... | 124 |
| 22. Khaydarova Iroda Anarbayevna PHONEMIC STRUCTURE OF MORPHEMES IN MODERN UZBEK LANGUAGE..... | 132 |
| 23. Khaydarova Iroda Anarbayevna, Allayarova Dilfuza Qlichevna ISSUES ON THE PHONEMIC STRUCTURE OF MORPHEMES IN MODERN UZBEK LANGUAGE..... | 136 |
| 24. Камола Насировна Каюмова ИНГЛИЗ ТИЛИДА ХУҚУҚИЙ ТЕРМИНОЛОГИЯ ЭТИМОЛОГИЯСИ..... | 141 |
| 25. Исмонилев Қахрамонжон Абдумўминович ХОЖА АҲМАД ЯССАВИЙ ВА ЯССАВИЙЛИК ТАРИҚАТИ ХОРИЖИЙ ОЛИМЛАР НИГОҲИДА..... | 145 |
| 26. Abdullayeva Nilufar Nasulloevna MAQOL VA NIKMATLI SO'ZLARNING PAREMIOLOGIK MAYDONI..... | 152 |
| 27. Нзанова Серегул Кунградбаевна ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛИДАГИ ЮКЛАМАЛАРНИНГ ТУЗИЛИШИ ВА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ..... | 158 |
| 28. Шужурова Мадина Аскарровна АНАЛИЗ СПЕЦИАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА XVI ВЕКА ПО АСПЕКТАМ ТЕРМИНОЛОГИЧНОСТИ..... | 165 |

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Abdullayeva Nilufar Nasulloeyevna
Buxoro davlat universiteti magistranti
abdullaevanilufar@yahoo.fr

МАҚОЛ ВА НИҚМАТЛИ СО'ЗЛАРНИНГ ПАРЕМИОЛОГИК МАЙДОНИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-26>

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda dunyo xalqlarining qadriyatlarini uzoq tarixi ildizlari bilan bog'lanadi. Bu qadriyatlar xalq og'zaki ijodi va ma'naviy meros bo'lmish maqollar va hikmatli so'zlarda o'z aksini topadi. Xalq donoligini aks ettiruvchi maqol va hikmatli gaplar XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikning yo'nalishi bo'lmish paremiologiyada o'rganila boshlandi. Ushbu maqolada ham fransuz xalqining ma'naviy hazinasidan ba'zi maqollar va hikmatli so'zlar paremiologik jihatdan tahlil qilingan. Ularning leksik, morfologik va sintaktik o'zgarishlari paremiologiya nuqtai-nazaridan o'rganilgan.

Kalit so'zlar : parema, paremiologik maydon, mnemotexnika, anafora, tilning tabiiy metrikasi, sententsial shakllar, folklor ifodalar, leksik variatsiyalar.

Абдуллаева Нилуфар Насуллоевна
Магистр Бухарского государственного университета
abdullaevanilufar@yahoo.fr

ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОЕ ПОЛЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК

АННОТАЦИЯ

Ценности народов мира уходят корнями в долгую историю. Эти ценности отражены в пословицах и изречениях которые являются фольклором и духовным наследием народов. Пословицы и изречения отражающие мудрость народа начали изучать в паремииологии, отрасль лингвистики, в конце XX го и в начале XXI го веков. В этой статье тоже паремииологически анализируются некоторые пословицы и поговорки из духовного богатство французского народа. Их лексические, морфологические и синтаксические изменения были изучены с паремииологической точки зрения.

Ключевые слова : парема, паремииологическое поле, мнемотехника, анафора, естественная метрика языка, разумные формы, фольклорные выражения, лексические вариации.

Abdullayeva Nilufar Nasulloeyevna
Master of Bukhara State University
abdullaevanilufar@yahoo.fr

PAREMIOLOGICAL FIELD OF PROVERBS AND SAYINGS

ANNOTATION

Today, the customs of the peoples of the world are rooted in a long history. These customs are reflected in proverbs and sayings that are folklore and spiritual heritage of peoples. Proverbs and sayings reflecting the wisdom of the people began to be studied in paremiology, a branch of linguistics, in the late XX and early XXI centuries. This article also analyzes paremiologically some proverbs and sayings about the spiritual wealth of the French people. Their lexical, morphological and syntactic changes were studied from a paremiological point of view.

Key words: parema, paremiological field, mnemonics, anaphora, natural language metric, reasonable forms, folk expressions, lexical variations.

Kirish. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Maqol bu – og'zaki ijod janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik, mantiqiy tugal ma'noli, chuqur mazmunli hikmatli ibora yoki gap bo'lib, muayyan ritmik shaklga egadir. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo'ladi. Ular asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga kelgan. Maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Tilda tuzilishi va tarkibining barqarorligi, ma'no butunligi bilan nutq go'zalligini ta'minlovchi yana bir tushuncha bor. Bu – ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga qadar tilda, shuningdek, nutq egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi turg'un iboralardir.

Turg'unlik maqollar kategoriyasining ham o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Biroq bu mavzuni yoritish uchun asos qilib olinadigan mezonlar uchun maqollarning o'zi yetarli bo'lmaydi. Boshqa tomondan esa ular, ya'ni, maqollar ma'lum bir cheklangan ritmik qolipda hosil bo'ladi va tilning "tabiiy metrika"sini ifodalaydi. Ushbu qoliqlar tilning holati, shuningdek, sintaktik tuzilmalar va umuman, sententsial shakllarning leksikoniga qarab farqlanadi.

Bizga ma'lumki, Mullo Bekjon Rahmon o'g'li, B.Karimov, Sh.Rizo, O'.Azimov, O'.Xolmatov, H.Zarif, M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, R.Jumaniyozov, M.Ahmadboyeva, E.Siddiqov, T.Mirzayev, K.Imomov, G'.Jahongirov, S.Qosimov, Z.Husainova, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev kabi o'zbek, A.Besperstix, V.P.Jukov, F.P.Felitsina, V.Dal', L.Tolstoy, I.Snigeryov, A.Afnas'yev, A.Korinfskiy, M.Ribnikova, V.P'yetsux, V.Zimin, A.Spirin, Yu.Proxorov kabi rus, P.Kadio, I-M.Visetti, S.G-J.Ferari, J-F.C.Zuogbo, M.Kitu, F.Syuard, C.Byuridan kabi fransuz va ispan folklorshunos olimlari maqollar sohasining nazariy masalalarini, o'z tillaridagi xususiyatlarini tadqiq qilganlar. So'nggi paytlarda gnomik fenomenlarga bo'lgan qiziqish maqollar va hikmatli so'zlarni o'rganishni yanada dolzarblashtirdi va hozirgi kunda ushbu tadqiqot doirasidagi muammolar quyidagicha qo'yilmoqda: maqollar aslida lingvistik hodisa nuqtai nazaridan maqbulmi? Yoki sintaksis, semantika, leksikon, pragmatika darajasida o'rganilishni taqozo etadimi? Yoki u shunchaki barcha madaniyatlarda mavjud bo'lgan folklor ifodalar bilan taqqoslanadigan epifenomenmi?

Darhaqiqat, juda qadimgi va tilning ba'zan o'ta me'yoriy qarashlari va "chiroyli so'zlashuv"ga asoslangan grammatik an'ana ibratli, nasihatimiz fenomenlarni ba'zi "normal" deb qaralgan sxemalarga (hech bo'lmaganda, shaklan) mos kelmasligini vaj qilib ko'rsatib, uncha ahamiyatli bo'lmagan ikkinchi darajali kategoriyaga aylantirib qo'ydi. Shunday qilib ular folklor fenomen sifatida onomatopeyalar kabi grammatikadan chiqarib tashlandi va fransuz tilshunosligida lingvistik nuqtai nazardan deyarli tadqiq etilmadi.

Biz bu yerda ushbu yondashuvning noto'g'ri bir nechta jihatlarini ko'rsatib o'tmoqchimiz.

Asosiy qism. Fransuz tilida hikmatli so'zlar ham turg'unlik xususiyati nuqtai nazaridan paremiologik to'plamlarga kiritilgan va hatto ba'zan ularning maqol sifatida talqin etilganliklariga ham guvoh bo'lamiz:

Un bienfait n'est jamais perdu. – Yaxshilik yerda qolmas.

Une hirondelle ne fait pas le printemps. – Bir qaldirg'och bilan bahor bo'lmaydi yoki Holva degan bilan og'iz chuchimaydi.

Bu kabi ibratli so'zlarning paremiologik maydoniga yaqinlashishimiz bilanoq bu tushunchaning ma'nosi va u qamrab olgan sohalarni aniqlab olish bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Endi ishni shundan davom ettiramiz:

Paremiologiya (yunoncha *paroimia* – hikmatli so'z, zarbulmasal) bu – ma'lum bir tildagi avloddan-avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o'rganadigan fan sohasidir. Paremlar xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslikning o'rganish ob'yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llaniladi. Shu bilan birga paremlar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish ob'yektidir. Parema mana shu ikki jihatni o'zida birlashtiradi. U frazeologiya bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ularning o'zaro farqi shundaki, parema – tilda mavjud bo'lgan barcha iboralarni o'rgansa, frazeologiya – faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi.

Biz quyida keltiradigan ba'zi hikmatli gaplar esa sententsial fenomenning qay darajada o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatadi:

1. Prudence est la mère de sûreté – Ehtiyotkorlik xavfsizlikning onasidir.
2. L'argent ne fait pas le bonheur – Baxt pulda emas.
3. Il faut battre le fer quand il est chaud – Temirni qizig'ida bosish kerak.
4. Les apparences sont trompeuses – Tashqi ko'rinish aldamchidir.
5. Les murs ont des oreilles – Devorning ham qulog'i bor.
6. Un sou est un sou – Pul bu puldir.
7. Le coeur a ses raisons que la raison ne connaît point (Pascal) – Yurakning aql tan olmas sabablari bor (Paskal).
8. Au royaume des aveugles, les borgnes sont rois – Ko'rlar mamlakatida bir ko'zlilar qiroldir.

Shakllar xilma-xilligidan tashqari yana shuni ham aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan hikmatli gaplarni turli kichik sinflarga guruhlash ishini tartibga solishga imkon beruvchi tizimli prinsiplar yetarli emas. Biz odatlanib qolgan – maqol, matal, hikmatli so'z, tavitologiya, pand-nasihad, shior, aforizm, vasiyat, iboralar kabi turlarga keladigan bo'lsak, ular yagona bir maqsadda qo'llanilmaydi, ya'ni, ularning qo'llanilish doirasi bir-biridan farq qiladi va bu lug'atlar va ilmiy tadqiqotlar, to'plamlar tomonidan tasdiqlab berilgan. Tel père, tel fils (Otasi qanday bo'lsa, o'g'li ham shunday bo'ladi) degan ibratli ibora fransuz romannavisi Greguar Delakur tomonidan aforizmlar qatoriga kiritiladi (1996), Monreyno-Pyerron-Syuzonni tomonidan esa maqollar orasida tasniflanadi. De Ruisso *Nous n'avons pas gardé les cochons ensemble* (Sizning betakallufligingizni qabul qilib bo'lmaydi) iborasiga maqol deb baho berdi (1997). U *Une hirondelle ne fait pas le printemps* (Bir qaldirg'och bilan bahor bo'lmaydi) da ham maqolni ko'rdi. Aynan shu iborani Pyerron matal (1997), Delakur aforizm (1996) va Djavadi meteorologik matal (1990) deb talqin qilishdi. 1995 yilda Malu uni, garchi deyarli barcha zamonaviy hind-yevropa tillarida mavjud bo'lsa ham, qadimgi grek maqollari sirasiga kiritadi.

T.L.F. (*Trésor de la Langue Française* – Fransuz tili xazinasi nomli lug'at kitobi) esa maqolni qisqa va rangli jumlar sifatida "aniqlik bilan qisqacha bayon etilgan, tajriba bilan bog'liq bo'lgan haqiqat" deb izohladi.

Shu tarzda biz muammoning mohiyatini ko'ramiz. Tildagi maqol, matal, hikmatli so'z kabi denominatsiyalar operativ tarzda tushuniladigan tushunchalar emas, ular yana va yana tadqiq etilishi lozim bo'lgan fenomenlardir.

Hikmatli so'zlar sohasiga bir nechta tasnif: Quyida keltiriladigan ta'riflarga olib boradigan yo'lni qisqacha yoritish uchun biz hikmatli so'zlar bayoniga intuitiv tushuncha deb baho beramiz va boshqa intuitiv bo'lmagan sententsial shakllarni unga zid qo'yib, tavsiflaymiz.

Hikmatomuz gaplar avtonom bo'lib, ular o'zlari tegishli bo'lgan nutqqa hech qanday to'siqlarsiz kiritilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan Sokratning iqtibosi bo'lmish *Connais-toi toi-*

même (O'z-o'zingni angla) L'habit ne fait pas le moine (Kiyim rohib qilib qo'ymaydi) yoki yana boshqa bir misolda De l'eau est passé sous les ponts (Qancha-qancha suvlar oqib ketdi) Les carottes sont cuites (Endi hech narsa qilib bo'lmaydi; Juda ham kech bo'ldi) ning o'rnida qo'llanilishi mumkin. Bu ikki holatda ularning shaklan turlicha bo'lsada, ma'no jihatidan umumiylik xususiyatiga ega ekanligi ko'rinadi. Lekin Un sou est un sou (Pul bu – puldir (yoki yana Tanga ham puldir degan talqinda ham qo'llaniladi)) va Les apparences sont trompeuses (Tashqi ko'rinish aldanchidir) kabi hikmatli so'zlarda buning aksini ko'rish mumkin. Ya'ni, ularning mushtarak xarakteri yo'q, birinchisida ko'rib turgan narsangga ishon degan ma'no anglashilsa, ikkinchisi hamma narsa ham ko'ringani kabi emas deb yuqoridagi fikrni rad etyapti.

Maqollar bir fikrni boshqa so'z yoki so'zlar birikmasi bilan takroran ifodalaydigan tavgaloga (masalan, **Odam insoniy** xislatlarga ega bo'lishi lozim; **Tobi qochgan odam kasaldir**) dan farq qiladi. Maqollarning matal, hikmatli so'z, pand-nasihati, shior, aforizmlardan farqli jihatlari yana quyidagilarda ko'rish mumkin:

a) maqollarda ota-bobolarning hayotiy tajribasiga asoslangan xalq donoligi o'z aksini topadi;

b) ular qisqa va ko'pincha metaforik bo'ladi;

c) ular og'zaki tarzda spontan yaratilgan bo'lib, xalq ichida keng tarqalgan;

d) maqollar ajdodlarning muqaddas, ma'naviy merosi sifatida avloddan-avlodga ko'chadi (ba'zan bizning o'zbek xalq maqollarimiz orasida uchrab turadigan deformatsiyani (Ustoz otangdan ulug' – Ustoz otangday ulug') fransuz maqollarida ham ko'rishimiz mumkin: Ne fais pas à autrui ce que tu peux faire le jour même – Ne remets pas à demain ce que tu peux faire aujourd'hui – Ne remets jamais au lendemain ce que tu peux faire le jour même – Ne remets pas à demain ce que tu peux faire après-demain. Fransuz tilidagi bu to'rtala maqolning o'zbek tilidagi muqobili Bugungi ishni ertaga qo'yma deb talqin etiladi. Lekin ko'rib turganimizdek, bitta ma'nodagi maqol to'rt xil shaklda bayon etilgan);

e) har bir maqol turg'un shaklga ega bo'lib, u o'z leksikasi bilan yod olinishi kerak bo'ladi;

f) ular ko'pincha ikki qismdan iborat bo'ladi;

g) ko'pincha mnemotexnikaga tegishli bo'lgan metrik xususiyatlar (qofiya, takrorlash, ohang va boshqalar) ni namoyon etadi.

Yevropada so'zlashiladigan tillar, ayniqsa, hind-yevropa tillarida kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladigan maqollar bor. Jumladan:

A beau mentir qui vient de loin (français) / De luengas vias, luengas mentiras (español) / Long ways, long lies (anglais) / Der hat gut lügen, der von weit her ist (allemand) / Grandes caminadas, grandes mentiras (galicien) / Urrutiko eltzea urrez, hurbildu eta lurrez (basque), va hokazo.

Lotin tilidagi original varianti esa Egrege mentiri potest qui ex loco longe dissito venit (O'zi yo'qning ko'zi yo'q) bo'lgan. Ammo ko'rinib turganidek, yuqoridagi variantlarda lotin tilidagi shakl deyarli butunlay o'zgarib ketgan. Chunki olinma (o'zlashma) so'zlardan tashqari ko'pgina badiiy, lisoniy hodisalar bir tildan boshqa bir tilga ko'chadigan bo'lsa, kamdan-kam hollarda o'z shaklini saqlab qoladi. Yirik til oilalaridan biri bo'lgan hind-yevropa tillari kesimida ham ayni shu hol kuzatiladi. Va mana shu nomutanosiblikdan "soxta do'stlar" kelib chiqadi. Ispan tilidagi hacer la vista gorda fransuz tiliga ham birdek faire celui qui ne voit pas, fermer les yeux (ko'z yummoq) deb tarjima qilinadi. Lekin ko'rib turganimizdek, bir-biriga qardosh bo'lgan ikki tilda bir ma'noni ifodalash uchun umuman boshqa-boshqa so'zlardan foydalanilyapti. Shu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, bu kabi vaziyatli gaplar maqol maqomidan ko'chadi va turg'un iboralarga yaqinlashgani holda ko'pgina maqollar o'zlarining variantlariga ham ega bo'ladi:

a) Les cordonniers sont les plus mal chaussés / C'est toujours les cordonniers qui sont les plus mal chaussés / Les cordonniers sont toujours les plus mal chaussés. Bu maqolning o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjimasida Etikdo'z etikka yolchimas bo'ladi. O'zbek tilida uning: Temirchi taqaga yolchimas,

Bo'zchi – belboqqa.

yoki

Usta pichoqqa yolchimas,

Etikdo'z - bigizga kabi muqobillari ko'p qo'llaniladi.

b) Toutes les vérités ne sont pas bonnes à dire / Toutes les vérités sont-elles bonnes à dire? / Toutes les vérités sont-elles démontables? / Toutes les vérités se valent-elles?(Haqiqat achchiq bo'ladi yoki To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi)

Qizig'i shundaki, bu variantlarning barchasi og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham birday qo'llaniladi.

Maqollarning tarqalishi : diaxronika sohasidagi ishlarning ko'rsatishicha, maqollar ular tadbiiq etilayotgan tillarga muvofiq kelish uchun ehtimoliy sintaktik va/yoki leksik jihatdan o'zgaradi. Biroq bu holni turg'un iboralarda kuzatish mumkin emas, binobarin, n'avoir pas un sou vaillant (bir chaqasiz qolmoq) / payer en monnaie de singe (pulini qaytarib berishingiz kerak bo'lgan insonni masxaralab, pul o'rniga qop-qop va'da berish) kabi iboralar o'zga tilning aktual holatiga moslashish uchun na sintaksis va na leksika nuqtai-nazaridan o'zining shaffofligini o'zgartirmagan, ya'ni bu birikmalar boshqa tilga tarjima qilinganda ham o'zining original mazmunini saqlab qoladi. Aksincha, maqollar doirasida esa o'zgarishlar uchrab turadi (hattoki, original tilda ham) va boshqa tillarda ularning aynan tarjimasi emas, balki shu maqolga ekvivalent bo'lgan maqol olinishi mumkin :

1. Tout vient à point qui sait attendre → Tout vient à point (**temps**) à qui sait attendre.

So'zma-so'z tarjimasi : Kutganga, eng oxirida bo'lsa ham, keladi.

Ekvivalenti : Sabr(ning) tagi sariq oltin.

2. Pour un perdu, deux retrouvés → Un **de** perdu, dix **de** retrouvés.

So'zma-so'z tarjimasi : Birni yo'qotsang, o'nni topasan.

Ekvivalenti : Birni eksang, o'nni o'rasan (olasan).

Bu ikkala maqolning hozirgi zamon shaklida sintaktik o'zgarishlar (à va de predloglarining qo'llanishi) ni ko'rishimiz mumkin.

Leksik o'zgarishga uchragan maqolga misol qilib Celui qui frapperà **du glaive** périra par **le glaive** → Qui vit par l'épée, périt par l'épée (o'zbek tilidagi ekvivalentlari : Qo'shning devorini kovlama, o'zingga nahra ochiladi yoki Birovga bermagin ozor, xonu-moningni buzari) ni keltirishimiz mumkin. Maqoldagi ajratib ko'rsatilgan le glaive so'zi o'rniga hozirgi kunda l'épée so'zi qo'llaniladi va buni original tildagi maqolning leksik o'zgarishi deb baholash mumkin. Nima uchun aynan original tilga urg'u beryapmiz? Chunki fransuz tilida bu ikkala so'z qilich, shamshir, tig' degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda ham bu so'zlar shu ma'noni anglatadi va bundan shu narsa anglashilib turibdiki, maqoldagi bir terminning ma'nodosh boshqa bir termin bilan almashinishi faqat fransuz tilida yuz beryapti.

L'argent ne fait pas le bonheur (Baxt pulda emas) maqoli tilshunoslar tomonidan anaforik hodisaga uchragan maqollar sirasiga kiritiladi, ya'ni, maqol shaklan bir qismdan iborat, biroq ba'zan kontekstdan kelib chiqib, birinchi qismdagi asosiy tushunchani to'ldirish maqsadida maqolga ikkinchi qism qo'shilishini ko'rishimiz mumkin va bunda birinchi qism boshidagi so'z (yoki uning ekvivalentlari) keyingi misrada takror keladi :

L'**argent** ne fait pas le bonheur mais **il** y contribue (Baxt pulda emas, lekin u (pul) baxtli bo'lishga xizmat qiladi);

L'**argent** ne fait pas le bonheur mais on est tout de même content d'**en** avoir (Baxt pulda emas, lekin shunday bo'lsa ham pulimiz borligidan xursandmiz)

Tilning barcha kategoriyalarida bo'lgani kabi maqollarda ham, hikmatomuz gaplarda ham turg'unlik elementlari uchrab turadi. Buni qat'iy rad etib bo'lmaydi. Biroq, yuqorida keltirilgan argumentlarga tayanib yana bir bor shuni ta'kidlamoqchimizki, turg'unlik ularning yagona, qat'iy xususiyati emas. Ammo boshqa tomondan agar maqollarning tuzilishi boshqa tillarda ma'lum darajada flektivlik, ya'ni moslashuvchanlikni namoyon etsa, ular butunlay erkin emas, ya'ni hisobga olinishi kerak bo'lgan boshqa fenomenlar ham bor. Jumladan, til xususiyati : ma'lum bir tilda maqollarni ifodalashda asosiy prinsip hisoblangan ritmik qolipning o'ziga xos me'yorlari, cheklovlari bo'ladi. Misralardan iborat maqollarda shuningdek, qofiya san'atiga ham amal qilinadi va bir tildagi maqolning qofiyalarini tashkil qilgan ohangdosh so'zlar boshqa bir tilda umuman qofiyadosh bo'lmasligi mumkin. Aynan mana shu jihatlar, kamdan-kam hollarda boshqa tillarga

mos kelgani holda, maqolning poetik mazmuni, ta'sirchanligi, shakli, kompozitsiyasi, intonatsiyasida muhim o'rin egallaydi va ma'lum bir xalqning og'zaki ijodi bo'lmish maqollar aynan mana shu qoliplarga asosli tarzda tayanadi. Misol uchun : Oignez vilain

Il vous poindra
Poignez vilain
Il vous oindra

maqoli izometrik qofiyalarga ega bo'lgan to'rtlik hisoblanadi. Bu maqolni faqatgina : Yomon odamning boshini silasangiz, u sizga yomonlik qiladi. Siz unga yomonlik qilganingizdagina, u sizga itoat etadi sifatida tarjima qilishimiz, shoirlilik iqtidorimiz bo'lsa, she'riy vaznga ham solishimiz mumkindir. Lekin yuqorida biz o'zbek tilida bergan tarjimada original tildagi qofiyalar-u, ritmi saqlab qololmaymiz.

Xulosa. Maqollar ularning « tabiiy metrikasi » ni namoyon etuvchi tilning ma'lum bir ritmik shabloni asosida yaratiladi. Bu shablonlar til holatlari bilan diaxronik nuqtai nazardan o'zgarib turadi va bu kabi o'zgarishlarga leksik variatsiyalar ham kiradi va bu tillardagi qoliplarning yagona holati ham emas.

Shuningdek, tilda biz yuqorida tilga olgan turg'unlik xususiyati ham bo'lib, u maqol, matal, hikmatli so'z, tautologiya, pand-nasihah, shior, aforizm kabi ifodalarga o'zlarining janrlik maqomlarini tutib turishlari uchun ham xizmat qiladi.

Paremalar: ular ikki xil bo'ladi. Birinchisi, bu hali ham tilshunoslik nuqtai nazaridan oz o'rganilgan toifadir, shu bilan bir qatorda u juda ko'p va qiziqarli xususiyatlarga ega. Uni adabiyotshunoslik arxaik-folklor ifodalar maqomiga mahkum qilib qo'ygan. Ikkinchisi esa, bu – hikmatli so'z va ma'nolardan tarkib topgan shakllar, ya'ni, maqollardir. Maqollar borasida yana bir farazni ilgari surishimiz mumkin: maqollar tarkibidagi so'zlarning ma'nosi ular tashkil qilgan ibratli gapdan anglashiladi. Zero, shu taxminga asoslanib, biror bir frankofonga apparence so'zi bilan biror gap ayt deydigan bo'lsak, u darhol bizga Les apparences sont trompeuses (Tashqi ko'rinish aldamchidir) degan maqolni misol qilib keltiradi. Chunki uning shu so'z atrofidagi dastlabki ko'nikmasi u hayoti davomida bir necha marotaba eshitib, balki o'zi guvoh ham bo'lgan mantiqiy voqelik negizida shakllangan.

Ushbu maqolamizga nuqta qo'yar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki, fransuz tili paremiologiyasining tub mohiyatini o'rganishga bel bog'lagan biz kabi izlanuvchilar paremalarning insonlararo aloqalardagi zarur elementlari, ularning odatiy hayot va ruhiy vaziyatlar orasidagi munosabatlarni aks ettirishini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganib, tilshunoslik nuqtai nazaridan hali o'z tadqiqini kutayotgan shu sohaga o'zimizning hissamizni qo'shamiz.

Adabiyotlar

1. Anscombe J-C. Les proverbes: un figement du deuxième type. – Paris, 2005.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent, 2001.
3. Berdiyurov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent, 1984.
4. Delacourt F. Proverbes, dictons et citations. – Paris, 1996.
5. Monreynaud F., Pierron A., Suzonni F. Dictionnaire des proverbes et dictons. – Paris, 1980.
6. Djavadi C. Rouge du soir. Dictionnaire des dictons météorologiques. – Paris, 1990.
7. Maloux M. Dictionnaire des proverbes, sentences et maximes. – Paris, 1995.
8. DesRuisseaux P. Le petit proverbier. – Québec, 1997.
9. www.proverbs.com
10. 10.www.amazon.com